

INGLIZ TILINI 0 DAN O'RGANISH STRATEGIYALARI

Eshmirzayeva Xalima Shamsidinovna

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

Ilmiy rahbarlar: Zubaydova Nilufar Ne'matullayevna

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tilini o'rganishni yangi boshlaganlar uchun strategik yo'llarni bayon etadi. Dastlabki qadamlar, so'z boyligini oshirish, grammatika qoidalarini o'zlashtirish, nutq va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda o'qish va yozish amaliyotlarini yoritadi. Shuningdek, maqolada til o'rganishda doimiylikning ahamiyati ham ta'kidlanadi. Ushbu strategiyalar orqali o'quvchilar ingliz tilini samarali va tizimli ravishda o'rganishi mumkin.

Kalit so'zlar: ingliz tilini o'rganish, boshlang'ich daraja, o'rganish strategiyalari, so'z boyligini oshirish, grammatika, nutq va tinglash, o'qish va yozish, doimiy o'qitish, til o'rganish.

Bugungi globallashtirish davrida ingliz tili xalqaro aloqa, biznes, ta'lim va texnologiya sohalarida muhim o'rin tutadi. Ushbu tilda muloqot qila olish ko'plab imkoniyatlarga yo'l ochadi. Ingliz tilini 0 dan o'rganishni boshlash qiyin bo'lishi mumkin, lekin to'g'ri strategiyalar yordamida bu jarayonni yengillashtirish mumkin. Va bu strategiyalarni birma-bir ko'rib chiqamiz.

O'rganishni boshlash strategiyalari. Ingliz tilini o'rganishni rejalashtirayotganda dastlabki qadamlarni aniqlash muhim. Boshlang'ich darajadagi kitoblar va mobil ilovalar orqali asosiy so'zlar va iboralarni o'zlashtirish mumkin. Shu bilan birga, o'qituvchi yoki kurslarga yozilish ham o'rganish jarayonini tezlashtiradi. So'z boyligini oshirish. Ingliz tilida so'z yodlashda tasvirlar, assotsiatsiyalar yoki fleshkartlardan foydalanish samarali. Har kuni 5-10 ta yangi so'z o'rganish va ularni jumlada qo'llab ko'rish yodlashni osonlashtiradi. Kontekst orqali so'z ma'nosini anglash esa tabiiy o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi. Grammatika. Ingliz tilining asosiy grammatik qoidalarini o'zlashtirish boshlang'ich uchun yetarli bo'ladi. Sodda gaplar tuzishni o'rganish, hozirgi, o'tgan va kelajak zamonlarda gap tuzish asosiy bilimlarni beradi. Grammatik qoidalarni yodlash o'rniga, amaliy mashqlar orqali qo'llash yaxshiroq natija beradi. Nutq va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish. Tinglash va talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirish uchun inglizcha audio kitoblar, podkastlar yoki dasturlarni eshitish mumkin. Filmlar yoki qisqa videolarni subtitrlar bilan tomosha qilish so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga yordam beradi. Oddiy jumlar tuzish va do'stlar bilan ingliz tilida gaplashish amaliyotni mustahkamlaydi.

О'qish va yozish. О'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qisqa maqolalar va hikoyalarni o'qish foydali. Dastlab oddiy matnlar bilan boshlash va asta-sekin murakkabroq materiallarga o'tish lozim. Yozishda esa kundalik yuritish, o'zi haqida qisqa matnlar yozish mashqlari yordam beradi. Doimiy o'qitish va amaliyot. Ingliz tilini o'rganishda doimiylik va sabr-toqat zarur. Har kuni vaqt ajratib, yangi so'zlar o'rganish, o'qish va tinglash mashqlarini bajarish kerak. Til o'rganishda doimiy amaliyot eng muhim omillardan biridir. Shu orqali til ko'nikmalari tobora rivojlanib boradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini 0 dan o'rganish uchun samarali strategiyalarni qo'llash, maqsadga erishish uchun yordam beradi. Har kuni kichik qadamlar qo'yish va doimiy amaliyot orqali ingliz tilini muvaffaqiyatli o'zlashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bailey, S. (2011). Academic Writing: A Handbook for International Students. Routledge.
2. Swan, M. (2005). Practical English Usage. Oxford University Press.
3. Murphy, R. (2012). English Grammar in Use. Cambridge University Press.
4. Nation, I. S. P. (2013). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press.
5. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2013). How Languages are Learned. Oxford University Press.